



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

G‘AZNAVIYLAR DAVRI SAN‘ATIDA SIYOSIY LEGITIMATSIYA VA MADANIY UYG‘UNLIK OMILI

Ibroximova Ma’suma Ravshanjon qizi
Tarix instituti, kichik ilmiy xodim

Annotatsiya

Maqolada g‘aznaviylar davrida san‘atning siyosiy legitimatsiya va madaniy integratsiyadagi o‘rni tahlil qilinadi. Xattotlik, me‘moriy bezak, devoriy tasvirlar, epigrafika hamda saroy musiqa san‘ati yozma manbalar va arxeologik topilmalar asosida o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari san‘at hukmdor hokimiyatini mustahkamlash va turkiy hamda islomiy an‘analarni uyg‘unlashtirish vositasi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: g‘aznaviylar, san‘at, siyosiy legitimatsiya, saroy madaniyati, epigrafik yodgorliklar.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЛЕГИТИМАЦИЯ И ФАКТОР КУЛЬТУРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ИСКУССТВЕ ЭПОХИ ГАЗНЕВИДОВ

Иброхимова Маъсума Равшанжон кизи
Институт истории, младший научный сотрудник

Аннотация

В статье анализируется роль искусства в политической легитимации и культурной интеграции в государстве Газневидов. Рассматриваются каллиграфия, архитектурный декор, настенные росписи, эпиграфика и придворная музыка на основе письменных и археологических источников. Делается вывод, что искусство служило укреплению власти правителя и синтезу тюркских и исламских традиций.

Ключевые слова: Газневиды, искусство, политическая легитимация, придворная культура, эпиграфика.

POLITICAL LEGITIMATION AND CULTURAL INTEGRATION IN THE ART OF THE GHAZNAVID PERIOD

Ibrokhirimova Ma’suma Ravshanjon qizi
Institute of History, Junior Researcher

Abstract

This article examines the role of art in political legitimation and cultural integration in the Ghaznavid state. Calligraphy, architectural decoration, mural paintings, epigraphy, and court music are analyzed through written and archaeological sources. The study demonstrates that art functioned as a means of strengthening royal authority and synthesizing Turkic and Islamic traditions.

Keywords: Ghaznavids, art, political legitimation, court culture, epigraphy.

X–XI yuzyilliklarda hukm surgan G‘aznaviylar sulolasi ko‘pincha harbiy-siyosiy kuch sifatida talqin etiladi. Biroq bu davr san‘at rivoji nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Me‘morchilik, xattotlik, tasviriy va amaliy bezak san‘ati hamda musiqa saroy madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib, davlat mafkurasining muhim tarkibiy qismiga aylangan. G‘aznaviylar san‘ati alohida yo‘nalishlar doirasida o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning siyosiy legitimatsiya va madaniy integratsiyadagi o‘rni yetarlicha kompleks tahlil qilinmagan. Shu bois mazkur maqolaning maqsadi G‘aznaviylar davrida san‘atning hokimiyatni mustahkamlash va turkiy hamda islomiy an‘analarni uyg‘unlashtirishdagi rolini aniqlashdir. Tadqiqot doirasida xattotlik va epigrafika, saroy devoriy tasvirlari, amaliy bezak san‘ati hamda musiqa va marosim unsurlarining siyosiy mazmuni tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Bayhaqiy, Gardiziy va Utbiy asarlari manbashunoslik asosida o‘rganildi. Arxeologik topilmalar, xususan, G‘azna va Lashkari Bozor majmualaridagi devoriy tasvirlar hamda bezak namunalari vizual-tahliliy usulda tahlil qilindi. Epigrafik va paleografik yondashuv orqali kufiy va nasx yozuvlarining estetik hamda funksional xususiyatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, G‘aznaviylar san‘ati Abbosiylar va islomdan avvalgi turkiy an‘analar bilan qiyosiy tahlil qilinib, madaniy uzviylik va transformatsiya jarayoni

ochib berildi.

Natijalar. Xattotlik. Gʻaznaviylar islom sivilizatsiyasi tarixida nafaqat harbiy-siyosiy kengayish, balki madaniy integratsiya va sanʼat tarmoqlarining rivoji bilan ham ajralib turadi. Mazkur davrda adabiyot, tarixnavislik, meʼmorlik bilan bir qatorda xattotlik sanʼati ham alohida estetik va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Xattotlik Gʻaznaviylar davrida diniy eʼtiqod, davlat boshqaruvi va saroy madaniyatining tutash nuqtasida shakllangan koʻp qirrali sanʼat sohasi sifatida namoyon boʻladi. Gʻaznaviylar davrida xattotlik amaliyotida asosan kufiy va nasx yozuv turlari qoʻllanilgan. Kufiy yozuvi, avvalo, epigrafik va monumental xarakterga ega boʻlib, masjid, minora, maqbara va rasmiy inshootlardagi yozuvlarda ishlatilgan. Ushbu yozuv turi toʻgʻri chiziqli, burchakli shakli bilan ajralib turadi va koʻpincha geometrik naqshlar bilan uygʻunlashtirilgan. Gʻazna shahridagi “Mahmud minoralari” va saroy qoldiqlarida aniqlangan kufiy yozuvli Qurʼon oyatlari va hukmdor nomlari bu yozuvning siyosiy-diniy ramziyligini yaqqol koʻrsatadi. Nasx yozuvi esa kitobat va devon ishlarida asosiy yozuv turi boʻlgan. Rasmiy hujjatlar, farmonlar, maktublar, Qurʼon nusxalari hamda tarixiy va adabiy asarlarning koʻchirilishida nasx yozuvi qoʻllanilgan. Paleografik tadqiqotlar XI yuzyillikda Xuroson — Gʻazna hududida koʻchirilgan qoʻlyozmalarda nasx yozuvi Bagʻdod anʼanasiga nisbatan soddaroq, harflar oraligʻi kengroq va bezaksizroq shaklda boʻlganini koʻrsatadi. Gʻaznaviylar davrining muhim xususiyati shundaki, bu davr kufiydan nasxga oʻtish bosqichi hisoblanadi. Ayrim yozma yodgorliklarda nasxga yaqin harf shakllari bilan kufiyga xos satr tartibi birgalikda uchraydi. Ushbu aralash shakl Gʻaznaviylar xattotligining oʻziga xos belgisi boʻlib, keyingi davr yozuv anʼanalariga oʻtish jarayonini aks ettiradi [1].

Gʻaznaviylar davri sanʼati, ayniqsa, tasviriy sanʼat masalasi tarixshunoslikda murakkab va bahsli muammolardan biri hisoblanadi. Sababi, oʻrta chogʻ arab va fors yozma manbalarida Gʻaznaviylar davrida yaratilgan tasviriy sanʼat asarlari, xususan, inson qiyofasini aks ettiruvchi devoriy rasmlar haqida toʻgʻridan-toʻgʻri va batafsil maʼlumotlar deyarli uchramaydi. Bayhaqiy, Gardiziy, Utbiy singari mualliflar asarlarida saroylarning hashamati, marosimlar va bezaklar tilga olinadi, biroq bu bezaklarning tasviriy xarakteri aniq tavsiflanmaydi. Mazkur holat ayrim tadqiqotchilar tomonidan Gʻaznaviylar davrida figurativ, yaʼni jonli tasvirli sanʼat mavjud boʻlmagan degan xulosaga sabab boʻlgan. Biroq XX yuzyillikda Afgʻoniston hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar, xususan, Lashkari Bozor saroy majmuasida aniqlangan devoriy rasmlar bu qarashni tubdan qayta koʻrib chiqishga majbur etdi.

Asosiy binoning orqa qismida aniqlangan gʻisht va ganchdan tashkil topgan geometrik kompozitsiyalar meʼmoriy bezak sanʼatining yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Biroq saroy majmuasidagi eng muhim sanʼat yodgorliklari taxt joylashgan xonada topilgan devoriy rasmlar boʻlib, ularda qabul marosimlari vaqtida sultonga hamrohlik qilgan qirq toʻrt nafar turkiy soqchi tasvirlangan. Xonaning ichki uch devorida joylashgan soqchi tasvirlarining oʻlchami deyarli inson boʻyi bilan teng, ayrimlari biroz kichikroq tasvirlangan. Soqchilar uzun, bezakli liboslar, kamarlar va belga osilgan qimmatbaho bezakli buyumlar bilan tasvirlangan. Ayrim tasvirlarda nur halqasi, ayrimlarida esa qurollar mavjud boʻlib, bu ularning maqomi va vazifasini anglatadi. Yuz tasvirlarida qoʻllangan qisq koʻzlar, yassi burun va yumaloq yuz shakli Gʻaznaviylar davrida hukmdor boʻlgan goʻzallik meʼyorlarini aks ettiradi. Ushbu kiyim unsurlari, tasvirlarning ketma-ket joylashtirilishi va qoʻllarida tutgan buyumlari bilan birgalikda tasvirlarning VIII–IX yuzyilliklarga oid Uygʻur devoriy rasmlari hamda IX yuzyillik Samarra saroy devoriy tasvirlari bilan oʻxshash ekanligini koʻrish mumkin [2]. Bunday oʻxshashliklar Gʻaznaviylar tasviriy sanʼatida islomdan oldingi turkiy tasviriy sanʼat anʼanalari uzluksiz davom etganini koʻrsatadi. Tasvirlarda uchraydigan ov qushlari, xususan, lochin motivlari hamda askarlarning yelkalariga tayangan qurollar Gʻaznaviylar saroyida ovchilik va harbiylik ramziy mazmunga ega boʻlganini anglatadi. Bu unsurlar hukmdorni faqat siyosiy yetakchi sifatida emas, balki harbiy jasorat va anʼanaviy turkiy elita qadriyatlarining davomchisi sifatida namoyon etishga xizmat qilgan. Shu tariqa, devoriy rasmlar saroy marosimlari bilan uygʻunlashgan holda siyosiy legitimatsiya vositasiga aylangan.

Arxeologik topilmalar asosida shuni aytish mumkinki, bu davrda amaliy bezak sanʼati ham ancha ravnaq topgan. Gʻaznaviylar davlatining harbiy-siyosiy kuchga aylanishi, Hindiston bilan faol aloqalar oʻrnatilishi va Xurosonning Buyuk Ipak yoʻli tarmoqlarida muhim oʻrin egallashi shahar iqtisodiyotining jonlanishiga olib keldi. Natijada kulolchilik buyumlari nafaqat kundalik ehtiyoj uchun, balki savdo va madaniy almashinuv vositasi sifatida ham ishlab chiqarilgan. Ayniqsa, Marv va Nishopurda topilgan sopol buyumlar keng hududlarga tarqalganini koʻrsatadi. Mazkur davr kulolchiligida bezak masalasida muhim estetik oʻzgarishlar yuz berdi. Agar islomdan avvalgi davrda figurativ tasvirlar nisbatan erkin qoʻllangan boʻlsa, islom kirib kelgandan soʻng, jumladan, Gʻaznaviylar zamonida bezak sanʼati tobora dekorativ-ramziy yoʻnalishga oʻtdi. Sopol buyumlar yuzasida oʻsimliksimon naqshlar, stilizatsiyalashgan hayvon

tasvirlari, ya'ni hayvonni aniq o'xshatib emas, balki uning umumiy belgilarini soddalashtirib, bezak shakliga keltirib tasvirlash va epigrafik yozuvlar ustunlik qilgan. Arab yozuvining bezak unsuri sifatida qo'llanishi G'aznaviyalar davri san'atining muhim belgilaridan biridir. Yozuv ko'pincha ma'no o'qilishini emas, balki mutanosiblik va bezak uyg'unligini ta'minlash vazifasini bajargan. Natijada epigrafik yozuvlar ba'zan ataylab stilizatsiya qilinib, geometrik yoki o'simliksimon naqshlar bilan qo'shib ketgan [3]. G'aznaviyalar davri kulolchilik misolidagi amaliy bezak san'ati shu tariqa ikki asosiy qatlamni o'zida mujassamlashtirdi: bir tomondan, Sosoniy va mahalliy an'analardan meros bo'lgan shakl va motivlar, ikkinchi tomondan esa islomiy dunyoqarash ta'sirida shakllangan yangi bezak tizimi. G'aznaviyalar san'atida epigrafika axborot berishdan ko'ra dekorativ vazifani bajarishga yo'naltirilgan. Minoralar, masjidlar va maqbaralarda uchraydigan kufiy va gullashtirilgan kufiy yozuvlar ko'pincha geometrik va o'simliksimon naqshlar bilan uyg'un holda joylashtirilgan. Bu holat yozuvni alohida matn sifatida emas, balki bezak kompozitsiyasining ajralmas qismiga aylantirgan. Mas'ud III va Bahromshoh davrida G'aznada qurilgan minoralarda yozuvlar oddiy matn sifatida emas, balki bezakning bir qismi sifatida ishlatilgan.

Musiqqa san'atiga to'xtaladigan bo'lsak, G'aznaviyalar saroyida musiqqa, ayniqsa, tantanalar, qabul marosimlari va ziyofatlarda muhim o'rin tutgan. Mahmud G'aznaviy saroyida xizmat qilgan, o'zining she'rlari, qasidalari bilan mashhur bo'lgan Farruxiy Seyistoniy nafaqat shoir, balki musiqqa bilan ham shug'ullanganligi manbalarda keltiriladi. Tanbur, chang, rud va nay kabi cholg'u asboblari X–XI yuzyillarda mintaqada hududida keng tarqalgan bo'lib, aynan shu davrda G'aznaviyalar saroy musiqasining asosiy cholg'ulari hisoblangan. Bu asboblarning qo'llanilishi musiqqa ijrosining tantanavor va saroyona xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi [4]. 1031-yil G'aznada nishonlangan Mehrgon bayramida shoirlar she'r o'qigan, undan so'ng mutriblar (musiqachilar) kuylab, cholg'u chalgan va bazm kechgacha davom etgan. Bu tadbirda ishtirok etgan musiqachilar va masxarabozlarga 30 ming dirham in'om qilingan. 1031-yil Termiz safari chog'ida 300 dan ortiq mahalliy musiqachi va raqqosalar tomonidan ijro etilgan musiqiy tomoshalar amir tomonidan yuqori baholangan va ijrochilarga 155 ming dirham ehson qilingan. Manbalarda ayrim musiqachilarning ismlari ham saqlanib qolgan. Jumladan, Bayhaqiy Sitt az-Zarrin ismli mashhur ayol qo'shiqchi-raqqosa va uning sahnadagi hamkori Andalibni tilga oladi. Shuningdek, Muhammad Bashnudi ismli musiqachi ud cholg'usida ijro etgani va 1038-yilda Mehrgon bayramida qatnashgani qayd etilgan [5]. Bunday tantanalarda musiqachi va raqqoslardan tashqari, masxarabozlar ham ishtirok etgan. Buki ismli mashhur masxaraboz o'z chiqishlari bilan bazmlarga ko'tarinki ruh berganligi haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi.

Muhokama. Tahlillar G'aznaviyalar davrida san'at estetik hodisa bilan cheklanmay, hokimiyatni vizual va ramziy jihatdan mustahkamlash vositasi bo'lganini ko'rsatadi. Saroy devoriy tasvirlari va ramziy unsurlar hukmdor maqomini yuksaltirishga xizmat qilgan. Xattotlik va epigrafika yozuvni nafaqat axborot, balki mafkuraviy va dekorativ unsurga aylantirgan. Monumental inshootlardagi kufiy yozuvlar siyosiy hokimiyatni diniy mazmun bilan uyg'unlashtirgan. Tasviriy va amaliy bezak san'atida turkiy va islomiy an'analar sintezi kuzatilib, bu jarayon ko'p madaniyatli hududlarda siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Shu tariqa, san'at G'aznaviyalar sulolasi mafkurasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan.

Xulosa. Bu davrda me'morchilik, xattotlik, tasviriy va amaliy bezak san'ati, musiqqa hamda tomosha unsurlari saroy madaniyati va davlat mafkurasi bilan uzviy bog'langan holda rivojlandi. Arxeologik topilmalar va yozma manbalar G'aznaviyalar san'atida islomdan avvalgi turkiy va mahalliy an'analar islomiy estetik qarashlar bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi. Natijada san'at nafaqat estetik ifoda vositasi, balki hukmdorlik legitimatsiyasi, ijtimoiy tartib va madaniy uzviylikni ta'minlovchi muhim omil sifatida faoliyat ko'rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Déroche F. Islamic codicology: An introduction to the study of manuscripts in Arabic script. – London, 2006.
2. Ettinghausen R., Grabar O., Jenkins M. Islamic art and architecture 650–1250. – New Haven: Yale University Press, 2001.
3. Hakimov A. A., Novgorodova E., Dani A. H. Arts and crafts in Transoxania and Khurasan // History of Civilizations of Central Asia. – Vol. IV, Part 2. – Paris: UNESCO, 2000.
4. Kadyrov M. H. Festivals, drama and the performing arts in Khurasan and Transoxania // History of Civilizations of Central Asia. – Vol. IV, Part 3. – Paris: UNESCO, 2000.
5. Music in the Islamic environment // History of Civilizations of Central Asia. – Vol. IV, Part 2. – Paris: UNESCO, 2000.